


(dastlabki ma'lumotlar)


## 2020 yil yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 636,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (30,2 %), transport xizmatlari (18,6 %), moliyaviy xizmatlar (17,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,4 %) ustunlikka ega.

### 2020 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %





# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(*dastlabki ma'lumotlar*)

## 2020 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>636,2</b>	<b>108,5</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	40,5	115,9
Moliyaviy xizmatlar	114,1	138,1
Transport xizmatlari	118,0	100,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari		
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	13,5	101,7
Savdo xizmatlari	192,2	103,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	19,2	102,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	23,3	102,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14,8	118,2
Ijara xizmatlari	12,9	101,4
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	17,2	103,3
Shaxsiy xizmatlar	44,4	101,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	8,6	101,1
Boshqa xizmatlar	17,5	101,7

2020-yil  
yanvar

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(*dastlabki ma'lumotlar*)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (138,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (118,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,9 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020 yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 117,7 mlrd. so'mga oshdi.

**2020 yil yanvar oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



2020-yil  
yanvar

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

*(dastlabki ma'lumotlar)*

2020 yil yanvar oyida o'tgan yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (41,0 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (27,9 mlrd. so'mga) hamda transport xizmatlari (12,2 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Ma'lumot uchun:** 2019 yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlari 36,0 mlrd. so'm, savdo xizmatlari 21,3 mlrd. so'm, transport xizmatlar 8,5 mlrd. so'mga oshgan.



2020-yil  
yanvar


**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020 yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari transport xizmatlari (100,7 %), shaxsiy xizmatlari (101,1 %), kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlari (101,1 %), ijara xizmatlari (101,4 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2020 yil yanvar oyida uning ulushi 30,2 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (18,6 %), moliyaviy xizmatlar (17,9 %), shaxsiy xizmatlar (7,0 %) egallaydi.

2020-yil  
yanvar

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi






# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020 yil yanvar oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2020-yil  
yanvar

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

*(dastlabki ma'lumotlar)*


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

## **2020 yil yanvar oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %**

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (89,6 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 10,2 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,2 % ni tashkil etadi.



2020-yil  
yanvar

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2020 yil yanvar oyida uning ulushi 86,4 % ni tashkil etadi.

2020 yil yanvar oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 7,5 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 6,1 % ni egallaydi.

2020-yil  
yanvar

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi





# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020 yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,5 %) egallaydi.


Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,5 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi 2020 yil yanvar oyi, %



■ Telekommunikasiya xizmati

■ Axborot sohasidagi xizmatlar

■ Nashriyotchilik xizmati

■ Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati

■ Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati

2020-yil  
yanvar

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

## 2020 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2020 yil yanvar oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 114,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 138,1 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (89,4 %) tashkil etadi.

2020-yil  
yanvar

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 yilning yanvar oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 13,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019 yil yanvar oyiga nisbatan o'sish sur'atlari 101,7 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,1 % ga yetdi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %**

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 100 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 80,8 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 19,2 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil  
yanvar

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020 yil yanvar oyida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga hajm, ming so'm

2020 yil yanvar oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 228,7 ming. so'mga teng bo'ldi. 2019 yil yanvar oyiga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 38,5 ming. so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28

2020-yil  
yanvar

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi